

**“BOBURNOMA” ASARIDA BADIY OBRAZLAR VA ULARNING
ESTETIK AHAMIYATI****Xolmurodova Odinaxon Dilmurod qizi***FARDU Filologiya va tillarni o'qitish:**O'zbek tili 2390-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida badiiy obrazlar qanday yaratilgani, ularning turlari va funksiyalari tahlil qilinadi. Muallifning estetik idroki va badiiy tafakkuri orqali tarixiy voqealar, shaxslar, tabiat manzaralari, jang va safar sahnalari hamda ichki ruhiy kechinmalar badiiy tarzda jonlantirilganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, Boburning hayotiy haqiqat va badiiy tasavvur uyg'unligini ta'minlab, o'quvchiga muayyan g'oyaviy va estetik mazmunni yetkazishdagi mahorati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bobur, Boburnoma, badiiy obraz, muallif obrazi, inson obrazlari, tabiat va makon, jang va safar, ichki ruhiy kechinmalar, estetik tafakkur, tarixiy voqelik, badiiy umumlashtirish

“Obraz” atamasi faqat inson ongida aks etgan voqea-hodisalardan iborat bo'lib qolmay, balki san'atkorning so'z orqali qayta ishlagan, badiiylashtirilgan va o'z estetik idroki bilan boyitilgan hayot talqinini ham bildiradi. V.G. Belinskiy ta'kidlaganidek, adabiy obraz tasodifiy emas; uning har bir detal va qismi asarning umumiy g'oyasiga xizmat qilishi, yaxlitlik va go'zallikni aks ettirishi, shuningdek, individual xususiyatini saqlashi shart. Shu nuqtai nazardan, Boburning “Boburnoma”dagi badiiy obrazlari ham oddiy tarixiy faktlar emas, balki estetik va g'oyaviy jihatdan qayta ishlangan, badiiy manzaralardir.

H.Umarovning fikricha, obraz voqelikni emas, balki san'atkorning idroki va talqini orqali yaratiladi. Obrazning tipiklash va umumlashtirish xususiyatlari uning badiiy mohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, Dilmurod Qur'onov har bir badiiy obrazning ortida ma'lum bir g'oya yotganini va uning voqelikni emas, balki voqelikka bo'lgan estetik munosabatni aks ettirishini ta'kidlaydi. Shu tarzda “Boburnoma”dagi obrazlar — Boburning zamoniga, hayotga va insoniyatga bo'lgan estetik qarashlarining badiiy ifodasi hisoblanadi.

Bobur asarida hayotiy haqiqat va badiiy tasavvur uyg'unlashgan holda tasvirlangan. Asarda badiiy obrazlar besh asosiy guruhga bo'linadi:

muallif obrazi;

inson obrazlari;

tabiat va makon tasvirlari;
jang va safar manzaralari;
ichki ruhiy kechinmalar.

Muallif obrazi — asarning markaziy elementidir. Bobur o'zini oddiy tarixchi emas, balki zamonasini, jamiyatini va insoniyatni badiiy idrok etgan ijodkor sifatida ko'rsatadi. U o'z orzu-umidlari, shaxsiy g'ami va shodligi, muvaffaqiyati va mag'lubiyatlarini samimiy va badiiy ifoda bilan yoritadi. Muallif obrazi orqali asarning ruhiy va g'oyaviy asoslari shakllanadi, Boburning shaxsiy kechinmalari va estetik idroki o'quvchiga yetkaziladi.

Muallif "Boburnoma"da o'zining hayoti haqida tug'ilganidan to vafotigacha bo'lgan davrni ketma-ket bayon qilmaydi; balki asarni taxtga chiqishi va hukmronlik faoliyati bilan boshlaydi. Shu jumladan, u o'zining podshohlikka ko'tarilgan kunini aniq tarixiy ma'lumotlar bilan qayd etadi: "Tangri taoloning inoyati va koinot sarvari bo'lgan hazrat Rasuli akramning shafoti, pokko'ngil chahoryorlarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi yili Farg'ona viloyatiga o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim". Shu yo'l bilan o'quvchi Bobur haqida batafsil ma'lumotni asarning to'liq o'qilishi davomida anglay oladi.

Bu uslub Boburning tarixiy voqealarni tasvirlashdagi realizmga bo'lgan yondashuvini ko'rsatadi. Asarning boshlanmasi kul'minatsion nuqtani eslatib, voqealar markazida bosh qahramon — Bobur turishini ifodalaydi. Bunday yondashuv orqali muallif nafaqat o'zining ijtimoiy-siyosiy mavqesini, balki shaxsiy xususiyatlari, ijobiy va salbiy fazilatlari hamda ijodiy faoliyatini ochiq-oydin ko'rsatadi. Shu tariqa, "Boburnoma"da muallif obrazi o'quvchiga Boburning shaxsiy va siyosiy hayotini chuqurroq tushunishga imkon beradi, uning shaxsiy kechinmalari, qarashlari va estetik idroki bilan tanishish imkonini yaratadi.

Inson obrazlari asarning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy muhitini aks ettiradi. Bobur insonlarning tarixiy voqealardagi harakatlaridan ko'ra, ularning ma'naviy qiyofasini va davr ruhiyatiga ta'sirini badiiy umumlashtirish orqali tasvirlaydi. Asarda R.Rasulov 1800dan ortiq kishi ismlari uchrashini aytsa, T.Nafasovning ta'kidlashicha, 1406 ta kishi ismi qayd etilgan ekan. M.Abdullayeva esa: "Boburnoma"da hammasi bo'lib 1540 nafar kishi nomlari tilga olingan", - deydi, bu esa inson obrazining qanchalik katta rol o'ynashini ko'rsatadi. Inson obrazlari esa asardan kelib chiqqan holatda shartli ravishda qarindoshlar, do'stlar va sodiq insonlar; dushmanlar va siyosiy raqiblar; davlat arboblari va amaldorlar; oddiy xalq vakillari kabi guruhlarga ajratilishi mumkin.

Tabiat va makon tasvirlari Boburning estetik idroki va hissiy olamining ifodasidir. Farg‘ona, Samarqand, Hisor, Kobul, Dehli kabi hududlar va ularning tabiat manzaralari poetik va jonli tasvirlangan. Bobur tog‘larning salobati, daryolarning shovullashi, gullar va mevalarning nafisligi, iqlim va ob-havo o‘zgarishlarini o‘z estetik nigohi bilan so‘zlab beradi. Bu tasvirlar faqat fon sifatida emas, balki Boburning ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog‘liqdir. Muallif tabiat va makon obrazlarini yaratar ekan, hech narsani ko‘zdan qochirmaydi. Joy nomlarining tarixi, iqlimi, geografik joylashuvi, qayerda qanday o‘simliklar o‘sadi, qaysi o‘simlikning qanday xususiyati bor, qaysi mevaning ta‘mi qanday, qayerda qanday hayvon turlari uchraydi va boshqa shu kabi ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni berib o‘tadi. Masalan, Hindistondagi bir meva haqida shunday ma‘lumot beradi: “Faqat Hindistonga xos o‘simliklardan biri anbadir. Ko‘pchilik hindistonliklar „be“ harfini harakatsiz talaffuz qilganliklari tufayli bu so‘zni aytishda qiynaladilar, shu bois ba‘zilari uni “na‘zak” deyishar ekan. Xoja Xisrav shunday yozibdi:

Na‘zaki mo‘nazkuni bo‘ston,

Na‘zatarin mevai Hinduston.

(Mazmuni: Na‘zakimiz bo‘ston bezagi va Hindistonning eng go‘zal mevasi)

Anbaning yaxshisi juda yaxshi bo‘ladi, kup yeyish mumkin, lekin yaxshisi kam uchraydi. Ko‘pincha uni xom uzadilar, uyda pishadi. Xomini oshga qo‘shib esa bo‘ladi, oshga qatıqdek bo‘ladi. G‘urasining murabbosi ham juda yaxshi. Haqiqatan, Hindistonning eng yaxshi mevasi shudir. Daraxti juda baland bo‘ladi. Ba‘zilari anbani maqtab, qovundan boshqa hamma mevalardan ustun qo‘yadilar. Ammo u maqtaganlaridek yaxshi emas. Anba kordiy shaftolisiga o‘xshab ketadi. Yomg‘ir mavsumida pishadi...”. Bu “anba” mevasiga berilgan ta‘rifdan bir parchasi edi xolos. Guvohi bo‘lganimizdek Bobur Mirzo o‘simlikning har bir xususiyatini birma bir izohlab o‘tgan. Asarda bu kabi ma‘lumotlar juda ko‘plab uchraydi. Nafaqat o‘simlig-u daraxtlar, qushlar, hayvonlar haqida ham juda qiziqarli va nodir ma‘lumotlarni yozadi va bu ma‘lumotlar Boburning diqqatli va estetik nigohini ko‘rsatadi.

Jang va safar obrazlari Boburning harbiy yurishlari, jang maydonlaridagi mashaqqatlari va safarlardagi qiyinchiliklarni dramatik va epik shaklda tasvirlaydi. Har bir jang sahnasi strategik tahlil bilan birga, inson ruhiga ta‘sirini, jangchilarning jasorati va iztiroblarini ham badiiy tarzda aks ettiradi. Masalan, Samarqandni olishdagi yosh va tajribasizligi, raqibning kuchi va safar davomida duch kelgan mashaqqatlari Bobur tomonidan samimiy va jonli ifodalangan. “Boburnoma” o‘ziga xos ko‘plab jang va safar obrazlariga boy asar. Asar tarixiy jang strategiyalari haqida shu qadar nodir ma‘lumotlar manbaiki, haligacha boburshunos olimlar tomonidan yangi-yangi qirralari ochilib tadqiq qilinmoqda.

Ichki ruhiy kechinmalar obrazlari Boburning shaxsiy hissiyotlari, g'am, quvonch, orzu-umid va armonlarini ifodalaydi. Yurt sog'inchi, oila va vatan yo'lida kechgan kurashlar, hayotning o'tkinchiligi haqida falsafiy mulohazalar asarda lirik ohangda aks ettiriladi. Masalan, shoh o'zining sodiq navkarlari bilan Kobul tomonga yo'lga chiqishganida tog'lar orasidan yurishadi. Juda ham kuchli qor yog'ib yurar yo'llarini to'sib qo'yardi. Shu holatda Bobur Mirzo ich-ichidan kelayotgan tuyg'ularni quyidagi misralar zamiriga shunday yashiradiki, bu baytni o'qigan istalgan inson qalbiga beixtiyor ana o'sha hislar sizib kira boshlaydi: "...Tavakkal qilib, Sulton Peshoiyni ilgari solib, yo'l topolmay qaytgan yo'limizga yana tushib jo'nadik. Bir necha kun ko'p tashvish va mashaqqatlar tortildi. Umr bo'yi bunchalik mashaqqat tortmagan edik. Bu matla' o'sha fursatda aytili:

Charxning men ko'rmagan javr-u jafosi qoldim-u?

Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldim-u?"

Shu tarzda, "Boburnoma" asarida badiiy obrazlar nafaqat tarixiy voqelikni aks ettiradi, balki san'atkorning estetik idroki va g'oyaviy pozitsiyasini ham ifodalaydi. Boburning obraz yaratish uslubi hayotiylik, samimiylik va estetik umumlashtirish bilan ajralib turadi, bu esa asarga nafaqat tarixiy, balki yuqori estetik qadriyatlar ham baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva M.D. Tarixiy nasriy asarlar badiiyatining qiyosiy tahlili ("Boburnoma" va "Shojarai turk" misolida): Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008.
2. Nafasov T. Bobur – nomshunos//Bobur va o'zbek milliy madaniyati. Ilmiy to'plam. – Samarqand: 2000.
3. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn] : darslik. – T.: "Noshir" nashriyoti, 2019.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma(tabdil). "O'qituvchi" nashriyoti. – Toshkent, 2008